

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA EMOTSIONALLIKNING LINGVOPOETIK TADQIQI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20830040>

Toshxujayeva Shoiraxon G'aniyevna

Qo'qon davlat universteti dotsenti

So'zlovchining o'ta xursandlik yoki o'ta xafalik holatlarini yoki qahramonning his-hayajonini, voqea-hodisaga emotsional munosabatini ifodalovchi gaplar emotsional gaplar hisoblanadi. Bunday gaplar, odatda, nutqning ta'sirchanligini oshirish, so'zlovchining ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va munosabatini ifodalashda muhim uslubiy vosita hisoblanadi. S.G'oyibov fikricha, "Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega bo'lgan leksika emotsional-ekspressiv bo'yoqdor leksika, stilistik bo'yoqdor leksika, ekspressiv-stilistik leksika terminlari ostida o'rganilmoqda. Bunday atash, umuman olganda, obyektiv haqiqatga mos keladi, chunki bu xil atamalar bu tip leksikaning eng muhim jihatini - emotsional-ekspressiv baho elementiga ega ekanligini nazarda tutadi."⁴⁶

Demak, baho semasi qo'shilishi bilan so'zlar emotsional so'zga - bo'yoqdor so'zga aylanib qoladi hamda bunday so'zlar neytral so'zlarga bimalol zidlasha oladi. Mana shu o'rta - neytral holat mavjud bo'lgani bois ular emotsionallik mavjud bo'lgan - emotsionallikka ega bo'lgan gaplar nomi bilan yuritiladi.

Yozuvchi Erkin A'zam asarlari tilining ekspressivligini ta'minlagan vositalardan biri emotsional gaplardir. M.Pirmatovanning "Undovlar va gender differentsiatsiyasi" maqolasida undovlar quyidagicha tasnif qilingan: "Emotsional undov so'zlarning ma'nolaridan kelib chiqib, umumlashtiradigan bo'lsak, ularni asosan: ijobiy emotsional ma'no bildiruvchi va salbiy his-tuyg'uni ifodalovchi undovlarga ajratishga to'g'ri keladi."⁴⁷ Ushbu tadqiqotda E.A'zam asarlarida voqelanuvchi his-hayajon ifodalovchi emotsional gaplarni quvonish, sevinish, erkalash, afsuslanish, e'tiroz, nafratlanish, jirkanish kabi munosabatlar anglatishiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lib tahlil qilamiz:

1. Ijobiylik baho semasiga ega bo'lgan emotsional so'zlar.
2. Salbiy baho semasiga ega bo'lgan emotsional so'zlar.

Ijobiy baho semasiga ega bo'lgan uslubiy bo'yoqdor so'zlar narsa-predmetlar, shaxslar, belgi, holat, harakat va hodisalarga bo'lgan turlicha ijobiy munosabatlarni

⁴⁶ Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981. – Б.160.

⁴⁷ Пирматова М. Ундовлар ва гендер дифференциацияси. // Ўзбек тили адабиёти. – Тошкент, 2013. –№3. – Б. 88.

anglatib keladi. Masalan, (Elchiyev) O'g'liga qarab ba'zan tong qoladi: "Bu bo'yni qayoqdan olgan?" So'ng, yuz-ko'ziga tikilarkan, uni kinoartistlarga o'xshatib, battar hayrati oshadi: "Shu bola rostdan ham mening o'g'limmi?!" **Chehra** bug'doyrang, tiniq, qosh-ko'zlar sim-siyoh – surma tortilgandek, qarashlarda mavhum bir ifoda... ("Javob") Parchada **yuz** ma'nodosh so'zining ijobiy ma'no ifodalovchi **chehra** varianti keltirilgan. Elchiyevning o'g'li tashqi ko'rinishiga berilgan ta'rif nutqqa ijobiy baho qo'shish uchun qo'llanilib, fikr bildirilayotgan shaxsga nisbatan o'quvchining ijobiy munosabatini ifoda etib kelgan.

Salbiy baho semasiga ega bo'lgan emotsional-ekspressiv so'zlar ham narsa-predmetlar, shaxslar, belgi, holat, harakat va hodisalarga bo'lgan afsuslanish, ranjish, jirkanish, mensimaslik kabi bir nechta salbiy munosabatlarni anglatib keladi. Masalan, *Madhiddinni hamma maqtaydi, hamma yaxshi ko'radi. Bilaman, uni bugun universitetda maqtaydilar, ertaga ishxonasida, jamoat o'rtasida maqtaydilar. U esa – qayerda, kimga, qaysi sharoitda bo'lmasin – hamisha qo'lini ko'ksiga qo'yganча: "Rahmat, rahmat", deb yo iljayib, yo ishshayib, yo tirjayib turaveradi; hatto tushida ranjitgan odamidan ham astoydil uzr so'raydi.* ("Otoyining tug'ilgan yili") Yuqorida sinonimik qator hosil qilib ajratib ko'rsatilgan so'zlar kulish xolatining muallif tomonidan salbiy xususiyatini darajama-daraja (gradatsion) tarzda ifodalagan. Yozuvchi agar yuqoridagi salbiy mazmun ifodalovchi so'zlardan foydalanmaganda, matn mazmunidagi salbiylik yo'qolardi. Mazkur so'zlar badiiy nutq tarkibiga baho semasini qo'shish uchun xizmat qilgan. Quyidagi misolda ham xuddi shunday xolat ko'rinadi: *Basharti, kursdoshlarni tanlash huquqi berilganda, men Bo'ston bilan o'qishdan qat'iy bosh tortgan bo'lardim. U bilan birga o'qiyotganimni o'ylab doim uyalib yuraman, kelajakda ham esimga tushsa, o'zimni kechirmasam, nomus qilsam kerak. Qachon qaramang, televizordagi "Qizlar davrasi" da ishshayib o'tiradi.* ("Otoyining tug'ilgan yili") Erkin A'zam ijodida badiiy nutqning emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini kuchaytirishda sinonimik qatorlar va gradatsion ifodalar muhim lingvopoetik vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, "Otoyining tug'ilgan yili" qissasidagi mazkur parchada kulish holatining salbiy bahosi turli darajadagi sinonimik birliklar orqali bosqichma-bosqich kuchaytirilib berilgan. Bu holat matnda nafaqat oddiy salbiy munosabatni, balki muallifning keskin bahosini ham yuzaga chiqaradi.

Parchada "uyalib yuraman", "o'zimni kechirmasam", "nomus qilsam kerak" kabi ifodalar gradatsion ketma-ketlik hosil qilib, qahramonning ichki ruhiy holatini asta-sekin kuchayib boruvchi emotsional bosqichlarda aks ettiradi. Natijada Bo'ston obraziga nisbatan salbiy munosabat oddiy tanqid darajasidan chiqib, chuqur psixologik noqulaylik va ijtimoiy baho darajasiga ko'tariladi.

Shuningdek, “ishshayib o’tiradi” ifodasi ham kulishning estetik emas, balki nojo’ya, yoqimsiz va masxarali xususiyatini ochib beruvchi baho semasi sifatida xizmat qiladi. Agar mazkur sinonimik va gradatsion birliklar qo’llanilmaganida, matndagi emotsional yuk sezilarli darajada pasayib, qahramonning ichki noroziligi va muallifning tanqidiy pozitsiyasi yetarli darajada ifodalanmagan bo’lard.

Demak, ushbu parchada gradatsiya va sinonimik qatorlar orqali salbiy baho asta-sekin kuchaytirilgan holda berilib, badiiy matnning ta’sirchanligi oshirilgan hamda o’quvchi idrokida qahramon haqidagi aniq va kuchli emotsional tasavvur shakllantirilgan.

Erkin A’zam asarlarida emotsional gaplar muayyan bir sintaktik birlikda estetik yaxlitlanib, emotsional kondensatsiyani yuzaga keltiradi: *Qaniydi, mana shu singari bir eminlik sharoiti bo’lsayu mardikorchiilikning basharasiga besh marta tupurib, o’tirib olib o’zingiz istagan narsani yozsangiz! Qaniydi! La’nat! Ming la’nat! (“Yozuvchi”); – Bu yoqqa o’t, tentak! – deydi Bolta Mardon o’g’lidagi o’zgarishni payqab jahl bilan. – Manovi ariqni to’s. Bir qatrayam o’tmasin! Suv berib bo’pman men bu xumsaga! (“Suv yoqalab”)*

Erkin A’zam asarlarida yuqoridagi ijobiy va salbiy baho ifodalovchi emotsional gaplardan tashqari his -tuyg’u ifodalovchi *oh-oh, ura, voy-voy, o-o* kabi undov vositalar nutqning ekspressivlik darajasini oshirishga xizmat qiladi hamda quyidagi mazmuniy strukturalarni hosil qiladi:

1. **Piching ma’nosiga ega emotsional gaplar:**

– Aspirant bo’lmoqchiman! Deb jarilladim kechqurun akamga.

Tomdan tarasha tushgandek qabildagi gaplarimga o’rganib ketgan akamni bu yangilik u qadar hayron qoldirmadi.

– Aspirant?! – dedi u ensasi qotibroq. – Marhamat, bo’lgin, kim bo’lma, deyapti?

– Ilmiy ish qilaman, dissertatsiya yozaman! – dedim uning pichingiga beparvo.

– Avval diplom ishi yozgin, o’qishni bitir, ha, keyin bir gap bo’lar. Qolaversa, bu sen o’ylaganchalik oson ish emas, – deya akam meni insofu andishaga chaqirmoqchi bo’ldi.

– Nimasi qiyin ekan? Yozaman desam, ba’zi bir chalasavod lapashanglaringizga o’xshab, olti-yetti yilga cho’zib yurmay, ikki yilda bitirib tashlayman!

– **Oh-oh**, u sizga bo’yoqchining nili ekan-da! – deb shashtimdan qaytarishga urindi akam. (“Otoyining tug’ilgan yili”) Erkin A’zam ijodida dialogik nutq orqali piching va kinoya munosabatlarini ifodalash muhim lingvopoetik xususiyatlardan biri hisoblanadi. Xususan, “Otoyining tug’ilgan yili qissasi”dagi berilgan parchada emotsional gaplar piching ohangi bilan birikib, qahramonlar o’rtasidagi ijtimoiy-psixologik ziddiyatni ochib berishga xizmat qiladi.

Parchada asosiy qahramonning “Aspirant bo’lmoqchiman!” degan hissiy bayoni uning ichki ishonchini ko’rsatsa, akasining javoblari orqali esa piching va istehzo ohangi yuzaga chiqadi. “Marhamat, bo’lgin, kim bo’lma, deyapti?” kabi gap kinoyaviy mazmunni o’zida mujassam etib, qahramonning rejasiga nisbatan shubha va istehzoni ifodalaydi. Dialog davomida piching kuchayib boradi: “Oh-oh, u sizga bo’yoqchining nili ekan-da!” kabi ibora so’zlovchining tanqidiy munosabatini yumor va istehzo orqali ifodalaydi. Bu esa nutqda ekspressivlikni oshirib, oddiy mulqotni badiiy-estetik jihatdan boyitadi.

Ushbu parchada piching ma’nosiga ega emotsional gaplar dialogik qurilish orqali yanada jonli va tabiiy tus oladi. Natijada qahramonlar nutqi nafaqat axborot almashinuvi vazifasini bajaradi, balki ularning xarakteri, dunyoqarashi va o’zaro munosabatini ham ochib beruvchi muhim badiiy vositalarga aylanadi.

2. **Tasodifiy voqea-hodisaga nisbatan achinish, afsuslanish mazmuniga mansub emotsional gaplar:** *Yaxshi yuribsizmi, Zabarjadxon? Bexabar ko’rinasiz, qizim. Bandachilik ekan, Vosil amakingizdan ayrilib qoldik. O’g’li pichoqlab qo’ydi. Kecha chiqarganmiz.*

–*Vay-y-y!*

Zabarjadning qo’lidagi salmoqligina shisha idish yerga tushib ketib, paqqa yoriladi. (“Zabarjad”)

3. **Kesatq ma’nosini ifodalovchi emotsional gaplar:** *-Voy, voy, buning gapini qara-ang! Endi bildim: sen qishloqi emas, qip-qizil to’pori ekansan! Undan ham battari- yovvoyi! (“Zabarjad”)*

4. **Shodlik va xursandchilik manosi:** *- Urre-e! Amakim armiyadan kelyapti! – dedi Fayzi irg’ishlab. – Amakim armiyada-an! (“Fayzining amakisi”)* Ushbu gapdagi sof emotsional so’z o’ta hursandlikni ifodalagani sabab “e” tovushi takror qo’llangan.

5. **Yodga olingan voqea-hodisani eslash semasini bildiruvchi emotsional gaplar:** *..o’qituvchilar bizlarga qarab norozi bosh chayqaydi: “Mana bularni ko’ring: ichadi, chekadi, kinoga kiradi.. Umuman tartib-intizomga rioya qilmaydi. Eh, bizlar! Bizning davrimiz! .. O-o-o, bizlar o’quvchiligimizda qandoq ediga! ... ” deyishadi og’iz ko’pirtirib. (“Kechirasiz, o’rtoq muallim!”)*

Yozuvchi fikrni tinglovchiga kuchli xis-hayajon bilan ifoda etish maqsadida matn tarkibida emotsional gaplarni qator - takror qo’llaydi. Adib ham asarlarini kitobxonga kuchli emotsional ta’sir etishi uchun bu vositalardan o’rni bilan unumli foydalangan: *Biz qo’ngan Ilmen ko’li bo’yidagi qarorgohning chor atrofi qor, qor, qor! Aqalli biror qora sharpa ko’zga tashlansachi! Hammayoq oq, oq, oppoq! (“Shovqin”); Elchiyev muvozanatini yo’qotdi, stolni mushlagancha shovqin solib baqirdi:*

– *Eshitsin! Hamma eshitsin! Butun dunyo eshitsin!* Agar o'g'ling o'sha yerga qadamini qo'ysa! ...

– *Qo'yaman!* – dedi Kamoliddin kamzulini kaftiga ilib. – *Hoziroq boraman!* (“Javob”). Yuqoridagi misollarda keltirilgan *oq, oq, oppoq!* va *Eshitsin! Hamma eshitsin! Butun dunyo eshitsin!* kabi emotsional gaplar leksik takror vositasida gradatsion tarzda ifodalangan. Yuqoridagi kabi xolat, ya'ni ma'lum bir gapda ikki va undan ortiq ekspressiv-sintaktik vositalardan foydalanish faqat Erkin A'zamga xos uslub ekanligi mazkur misollar tahlilida yaqqol namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Erkin A'zam asarlari tilining ekspressivligini ta'minlagan vositalardan biri emotsional gaplar hisoblanadi. E.A'zam asarlarida voqelanuvchi his-hayajon ifodalovchi emotsional gaplarni quvonish, sevinish, erkalash, afsuslanish, e'tiroz, nafratlanish, jirkanish kabi munosabatlar anglatishiga ko'ra ularni ijobiylik va salbiy baho semasiga ega bo'lgan emotsional so'zlar kabi turlarga bo'lib tahlil qilish ijodkorning lingvopoetik imkoniyatlardan ushbu vosita orqali ham samarali foydalana olganligini ko'rsatadi.